

9-sinf. Ona tili. 1-BSB. (25 ball)

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- so'z birikmalarini aniqlay oladi;
- gap bo'laklarini farqlay oladi;
- gapning uyushiq bo'laklarini aniqlay oladi;
- gapning qaysi bo'lagi ajratilganini aniqlay oladi;
- undalma va kirish so'zli gaplarda tinish belgilarini qo'llay oladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Gaplar tarkibidan so'z birikmalarini aniqlang, ularni otli va fe'lli birikmaga ajrating. (5 ball)

1. Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopirilib, o'rnimdan turib ketaman.
2. Furqat mahalla maktabida o'z davrining turli ilmlarini o'rgangan edi.

	Otli birikma	Fe'lli birikma
1-gap		
2-gap		

2. Berilgan drabl (qisqa hikoya)lardan ajratilgan gaplarni sintaktik tahlil qiling. (5 ball)

1. Yaylovda chorvani o'tlatib yurgan onani to'satdan novvos suzib yubordi.
– Ko'zga qarash kerak edi, oyi, – dedi barzangiday o'g'il to'shakka mixlangan onaga...

2. U bog'chadan o'g'irlab kelgan bo'rsildoq nonlarni cho'chqalariga to'g'rab berdi. So'ng nima uchun Xudodan tilab olgan o'g'lining ko'zlari ko'r bo'lib tug'ilganini o'ylab yurak-yurakdan ezilib yig'ladi.

3. Berilgan gaplardan uyushiq bo'laklarni toping, qaysi gap bo'lagi vazifasida kelganini aniqlab yozing. (5 ball)

1. Mamlakatimiz kelajagi uchun javobgarlikni his qilishga qodir, maqsad sari intiluvchan, serg'ayrat avlodni tarbiyalash borasida bir qator vazifalar belgilab berildi.
2. Dadasi har kuni uni qo'lga olar, suyar, zavqlanar va uning qiliqlariga zavq bilan kular edi.

4. Gaplardagi ajratilgan bo'laklarni gapdagi vazifasiga ko'ra moslashtiring (diqqat, ortiqcha javob mavjud). (5 ball)

1. Ularni, qo'l to'pi sportchilarini, boshqa ishlarga jalb qilmaslikka qaror qilindi.	A) ega ajratilgan gap
2. Chorvachilikning ham o'ziga yarasha sir-asrorlari bor (yaqinda bu masalada ma'ruza ham qilgan edim), bundan xabardor bo'lmagan odam chorva boqa olmaydi.	B) kesim ajratilgan gap

3. Biz, sizning do'stlaringiz, yo'l qo'yilgan xato halokatga olib borguncha indamay turarmidik.	C) hol ajratilgan gap
4. Hovlida, mashinalar yuviladigan joyda, bolalar qiy-chuv ko'tarib, hazil-huzul qilishyapti.	D) to'ldiruvchi ajratilgan gap
5. Axir uning, Vohidning ham, o'ziga yarasha obro'si, yigitlik g'ururi, izzat-nafsi bor-ku!	E) aniqlovchi ajratilgan gap
6. Bahromjon hozir oilasi bilan Toshkentda – o'z ona yurtida.	

5. Undalma va kirishlarga oid tinish belgilarini qo'yib matnni ko'chiring.
(5 ball)

O'rmon yonardi. Ma'lum bo'lishicha bir chumchuq og'ziga suv olib, o'rmon tomon uchar va tag'in daryoga qaytardi. Taassufki o'rmonning yonishini ilojisiz kuzatib turgan hayvonlardan biri kulib baqirdi:

– Hey do'stim o'rmonni bir tomchi suv bilan qutqarasanmi?

Chumchuq javob berdi:

– Nima qilay axir qo'limdan keladigani shu-da!

– Menimcha sen shunchaki harakat qilyapsan?

Baholash mezonlari (25 ball)	
So'z birikmalarini aniqlay olishi	5 ball
So'z birikmalarini to'liq va to'g'ri aniqlab, ularni otli va fe'lli birikmalarga ajrata olgan bo'lsa –	5 bal
So'z birikmalarini aniqlashda xatolikka yo'l qo'ygan va bu xatolik otli va fe'lli birikmalarni ajratishda ham aks etgan bo'lsa –	4 – 3 ball
So'z birikmalarini aniqlashda bir talay xatoliklarga yo'l qo'ygan va bu xatoliklar otli va fe'lli birikmalarni ajratishda ham aks etgan bo'lsa –	2 – 1 ball
Gap bo'laklarini aniqlay olishi	5 ball
Drabllardan ajratib ko'rsatilgan gaplarni gapdagi vazifasiga ko'ra (ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) to'liq tahlil qila olgan bo'lsa –	5 bal
Drabllardan ajratib ko'rsatilgan gaplarni gapdagi vazifasiga ko'ra (ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) qisman tahlil qila olgan bo'lsa –	4 – 3 ball
Drabllardan ajratib ko'rsatilgan gaplarni gapdagi vazifasiga ko'ra (ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) tahlil qilishda xatoliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa –	2 – 1 ball
Uyushiq bo'laklarini aniqlay olishi	5 ball
Gaplar tarkibidan uyushiq bo'laklarni topib, qaysi gap bo'lagi vazifasida kelganini to'g'ri aniqlay olgan bo'lsa –	5 bal
Gaplar tarkibidan uyushiq bo'laklarni topib, gapdagi vazifasini aniqlay olmagan bo'lsa –	4 – 3 ball
Gaplardan biri tarkibidan uyushiq bo'laklarni topgan, ammo gapdagi vazifasini aniqlay olmagan bo'lsa –	2 – 1 ball

Gaplardan ajratilgan bo‘laklarni aniqlay olishi	5 ball
Gaplardagi ajratilgan bo‘laklarni gapdagi vazifasiga ko‘ra to‘g‘ri moslashtira olgan bo‘lsa –	5 bal
Gaplardagi ajratilgan bo‘laklarni gapdagi vazifasiga ko‘ra moslashtirishda juz’iy xatoliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa –	4 – 3 ball
Gaplardan ajratilgan bo‘laklarni aniqlagan, ammo ularning gapdagi vazifasiga ko‘ra moslashtirishda chalkashtirib yuborgan bo‘lsa –	2 – 1 ball
Undalma va kirish so‘zli gaplarda tinish belgilarini qo‘llay olishi	5 ball
Parchadan tushirib qoldirilgan undalma va kirishlarga oid tinish belgilarini to‘g‘ri joylab, matnni ko‘chirgan bo‘lsa –	5 bal
Parchadan tushirib qoldirilgan undalma va kirishlarga oid tinish belgilarini joylashda juz’iy xatoliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa –	4 – 3 ball
Parchadan tushirib qoldirilgan undalma va kirishlarga oid tinish belgilarini joylashda urinish bo‘lgan-u, ammo harakat samarasiz bo‘lgan bo‘lsa –	2 – 1 ball
Jami:	25 ball